

**BOLALAR BILAN BOG‘LIQ BO‘LADIGAN YO‘L-TRANSPORT
HODISALARINI IJTIMOYIY OQIBATLARI VA UNING OLDINI OLISH
BO‘YICHA CHORA TADBIRLAR**

Hamroqulov Rasuljon Madraimovich¹

¹ *Toshkent davlat transport universiteti*

Aliyev Abdusalom Abduraxmonovich¹

¹ *Toshkent davlat transport universiteti*

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.10.2024

Revised: 08.10.2024

Accepted: 09.10.2024

Ushbu maqolada Toshkent shahrida bolalar bilan bog‘liq bo‘ladigan yo‘l-transport hodisalarini ijtimoiy oqibatlari va uning oldini olish bo‘yicha chora tadbirlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR:

*yo‘l-transport
hodisalari, bolalar,
maktab.*


KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab bolalar tug‘ilishi, ta‘lim-tarbiya, oilada sog‘lom muhitni, uning iqtisodiy va ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, bolalarning sog‘ligini mustahkamlash va ularni turli unsurlardan himoya qilishga katta ahamiyat berilib kelmoqda. Turli unsurlarga bolalarni majburiy mehnatga jalb etish, ularning ongini buzuvchi, ruhiy jarohat yetkazuvchi turli axborotlar, sog‘ligiga zarar keltiruvchi turli kasalliklar, shuningdek yo‘llarda bolalar ishtirokida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari oqibatida turli darajada jarohat olishlarini tushunish mumkin.

Bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish uchun Koreyada turli choralar ko‘rib borilgan. Maktablar yaqinidagi yo‘llar holatini yaxshilash, bolalar uchun maktab avtobuslarining xavfsiz qatnovini ta‘minlash, bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha sifatli ta‘lim berish, yo‘l harakati xavfsizligiga ixtisoslashgan fuqarolik guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, tegishli qonunchilik bazasini mustahkamlash dasturlari shular jumlasidan.

Bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarining oldini olish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish uchun yuqorida keltirilgan statistik ma‘lumotlarning o‘zi kamlik qiladi. Sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarida ishtirok etgan bolalarning yoshi bo‘yicha tahlil qilinsa, ishlab chiqilayotgan tadbirlar samarasi oshgan bo‘lar edi. YTH ishtirokchisi bo‘lgan bolalarning yoshini 1-7 hamda 8-15 yoshgacha bo‘lgan bolalar yoshiga ajratib olamiz.

Toshkent shahri ko‘cha va avtomobil yo‘llarida 2019 yilda 1-7 yoshli bolalar ishtirokidagi YTH soni 42tani tashkil etsa, uning oqibatida halok bo‘lgan bolalar soni 3tani, 8-15 yoshgacha bolalr ishtirokidagi YTH lar soni 105 tani, uning oqibatida halok bo‘lgan bolalar soni 4 nafarni, turli darajada jarohat olgan bolalar esa 100 nafarni tashkil etadi. Keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, YTH bo‘yicha barcha ko‘rsatkichlar 1-7 yoshli bolalarga nisbatan 8-15 yoshli bolalar ko‘proq duch kelishar ekan.

Bunday ko‘rsatkichlarning sababini statistik ma‘lumotlar va tadqiqotlar natijasi asosida tushuntirib o‘tamiz. Odatda 1-7yoshli bolalarni bolalar bog‘chasi, maktab,to‘garaklarga yoshi katta yaqinlari qat’iy kuzatuvda oborib qaytib olib kelinadi.O‘yin maydonchalarida ham kattalar nazoratida bo‘lishadi.



1-rasm. Toshkent shahrida 2021-2022 yillarda bolalar bilan sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari tahlili

8-15 yoshli bolalar esa aholi punktlarida mustaqil harakatlanishadi. Demak, bolalar ishtirokidagi YTH larning oldini olish bo‘yicha ularga alohida tadbirlar ishlab chiqish

lozim. Hozirgi umumiy ta'lim Davlat dasturida 4-9 sinflarda 17 soatlik Yo'l harakati qoidalari bo'yicha darslar o'tiladi. Shu bilan birga Yo'l harakati bosh boshqarmasi tomonidan "Diqqat bolalar", "Yashil chiroq", "Diqqat ta'til" kabi tadbirlar tashkil etiladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, 8-15 yoshli bolalarni YTH dagi ishtiroklarini kamaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni taklif etamiz:

- 8-15 yoshli bolalar ta'lim olayotgan maktab, litsey kabi ta'lim muassalarida Yo'l harakati qoidalari bo'yicha dars soatlarini ko'paytirish;

- Prezidentimizning Yo'l harakati qoidalari bo'yicha darslarni o'tish bo'yicha Jizzax tajribasini ommalashtirish;

- Yo'l harakati qoidalari bo'yicha darslarning nazariy va amaliy qismlarining mutanosibligi asosida o'qitishni tashkil etish;

- Yo'l harakati qoidalari bo'yicha darslarni imkoni boricha soha mutaxassislarini jalb etish;

- Ommaviy axborot vositalarining bolalar uchun tayyorlangan dasturlarida Yo'l harakati qoidalariga bag'ishlangan mavzularni ko'proq yoritish.

- maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalariga yondosh yo'llarda tezlik meyorlarini keskin kamaytirgan holda, ushbu meyorlarni barcha joylar uchun yagona etib qat'iy belgilash rejalashtirilgan.

- shahar va tumanlarning aholi gavjum joylarida piyodalar yo'lakchalariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o'rnatish mo'ljallanmoqda.

- maktab o'quvchilarida shaxsiy xavfsizlik va qonunga itoatkor xulqatvor bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga yo'l harakati xavfsizligi asoslarini o'qitish tizimini yo'lga qo'yish;

- yo'l harakati xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish asoslarini o'rgatuvchi dasturlarni o'z ichiga olgan «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» majburiy fanini umumta'lim maktablarda joriy etish, ichki ishlar organlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligida katta obro' va tajribaga ega bo'lgan pensionerlarni jalb qilish imkoniyatini nazarda tutish;

- bolalarga yo'l harakati qoidalarini, shu jumladan velosipedni boshqarish ko'nikmalarini va yo'llardan o'tish tartibini o'rgatish va tushuntirish;

- barcha maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda bolalar yo'l harakati qoidalari o'rgatilishini tashkil etish uchun maxsus jihozlangan avtoburchaklar yaratish;

- umumta'lim maktablaridagi "Yo'l harakati xavfsizligi" faniga doir o'qitish uslubi bo'yicha o'quv kurslarini shu sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun tashkil etish;

- umumta'lim maktablari, kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari orasida «Yashil rang», «Yo'l harakati qoidalari bilimdoni», «Eng namunaviy yo'lovchi» kabi viktorinalarni har yili o'tkazish.

Shuningdek, barcha YTHlarini kelib chiqishiga ta'sir etuvchi salbiy omillarga nisbatan huquqiy tartibotni qo'llashda milliy va xalqaro darajadagi qonunchilikni muvofiqlashtirish va muntazam yangilab borish, o'zaro tajriba almashish va mustahkam hamkorlik o'rnatish orqali kutilgan natijalar samarasiga erishish mumkin bo'ladi.

Shu va shu kabi tadbirlarning bolalar o'rtasida olib borilishi ularning YTH ishtirokchisi bo'lish kabi ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishini ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yilda qabul qilingan "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190- sonli qarori

2. <https://yhxx.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi" Qonuni. Toshkent 2022 yil №172-sonli Qarori.

4. O'G, J. R. Y. R., O'G'Li, A. E. X., & Hamroyevich, T. N. (2021). HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI O'ZBEKISTON 2030 DASTURINI JORIY ETISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 749-754.

5. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАХЛИЛИ. *IJODKOR O'QITUVCHI* 2 (24), 216-219.

6. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАХЛИЛИ. *IJODKOR O'QITUVCHI* 2 (24) 220-222.

7. У Исоханов, С Турдибеков, Э Абдусаматов (2023). ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРДА КЎРИНМАС ХУДУД ДА ЙЎЛ ТРАНСПОРТ

ҲОДИСАЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1(6) 92-95.

8. OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

9. ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, ДА Абдураззакова, Э Абдусаматов, Ш Аbruев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЁМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

10. ШХ Шерматов, ШИ Аbruев, ЭХ Абдусаматов, НХ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.

